

TUZ LEKSEMASINING RAMZIY MA'NOLARI

Shaxzoda Muxammadaliyeva

o'qituvchi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

shahzodaxon532@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada tuz leksemasining ramziy ma'noalri tahlil qilingan. Ular badiiy asarlardan olingan misollar va o'zbek xalq maqollari orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: tuz, ramz, ovqat, ibora, xalq, nasiba.

СИМВОЛИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ ЛЕКСЕМЫ СОЛЬ

Шахзода Мухаммадалиева

учитель

Ташкентский государственный имени Алишера Навои

университет узбекского языка и литературы

Ташкент, Узбекистан

shahzodaxon532@gmail.com

Абстракт

В данной статье анализируются символические значения лексемы соль. Они объясняются на примерах из произведений искусства и узбекских народных пословиц.

Ключевые слова: соль, символ, еда, фраза, человек, судьба.

O'zbek tili ramziy ma'noli so'zlarga juda boy hisoblanadi. Ulardan muloqot davomida hamda badiiy asarlarda keng foydalaniladi. Chunki nutqni oddiy so'zlar orqali ikkinchi shaxsga yetqazgandan ko'ra obrazliroq qilib, ramziy usulda aytilsa,

ta'sir qilishi kuchliroq bo'ladi Ana shunday so'zlardan biri tuz leksemasidir. Unga "O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan:

TUZ I 1 kim. Molekulalari tarkibiga kislota qoldig'i bilan boglangan metall atomlari kirgan murakkab moddalar. *Tuz organizmning tuzilishi uchun, unda modda almashinishining to'g'ri borishi uchun zarurdir.* N. Ismoilov, Kasallarni parvarish qilish. *Tuproq sho'rlanishi jarayonida ko'proq xlor va sulfat tuzlari to'planadi.* "Fan va turmush".

2 Shu birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi (natriy xlorid). *Osh tuzi. Qoratikan tuz. Mayda tuz. Yirik tuz. Oshga tuz solmoq. Taom — tuz bilan, tuz — o'lchovi bilan. Maqol. Xosiyat xola olovi ancha pasayib qolgan o'choq yoniga borib, tuvoqni ko'tardi-da, oshning ta'mini ko'rib, bir chimdim tuz tashladi.* R. Fayziy, Cho'lga bahor keldi. *Yorni go'zal dema, oqil so'zi bo'lma-sa, Totli bo'lmas taom, agar tuzi bo'lmasa.* Y. Mirzo. [O'TIL, 2006: 179].

Ushbu leksema tilimizda yuqoridagi ma'nolaridan tashqari bir qancha ramziy ma'nolarda ishlatiladi. Ular jonli so'zlashuv bilan bog'liq bo'lib, badiiy asarlarda ham ko'p qo'llaniladi. Ularni birma-bir ko'rib chiqamiz:

Ovqat, yegulik-ichgulik narsa. Tuz ovqatga qo'shiladigan mahsulot bo'lganligi uchun xalqimiz orasida ovqat ma'nosida keng qo'llaniladi, buni quyidagi misollar orqali ham ko'rishimiz mumkin: *Keling, o'g'lim, bir qoshiqqina ovqat ichvoling, sahardan beri tuz totmabsiz, — deb Tojixon aya tugunini ocha boshlagan edi, Yusuf unamadi.* [U.Hamdani, 2007 :141]. *Ellik uch yil! Ellik uch yildan beri bir dasturxondan tuz tatigan, bir ko'rpani bosgan, birga kulgan, birga yig'lagan...* [A.Qahhor, 2008 : 65]. *Mana uning tuz totmaganiga bir sutka bo'lay deb qoldi.* [Ch.Aytmatov: 33]. *Ertalabdan beri tuz totganlaring yo'q. Biroz tamaddi qilib olinglar.* [E.Vohidov : 12]. *Bir kun tuz ichgan joyga Qirq kun salom ber.*[O'XM, 2005, 53].

O'zbek xalqi juda mehmondo'st xalq hisoblanadi. Hammaga qo'lidan kelgancha yordam qilishga, rizqlantirishga harakat qiladi. Aynan shuning uchun ham tuz leksemasi kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan (yegan-

ichgan) ovqati ma'nosida ham ishlatiladi: *Mayli, aya uchun... Sening bu... qo'polligingga kabinetdan haydab chiqarish kerak edi-yu, aya bechoraning tuz-noni uchun!* [O.Yoqubov, 1975 : 43]. *Shundog' qilib sizning o'z kishingiz bo'lg'an Otabek tuz haqingizni unutdi.* [A.Qodiriy, 2008 : 66]. *O'z xo'jayiniga, non-tuzini ichgan kishisiga qo'l ko'targan odam qanday odam bo'ladi? - deb so'zlanadi.* [Cho'lpon, 2011 : 281]. *Shu kinlar ichida tuz haqini saqlaydilar. Siz hujum qilmasangiz, sizga tegmaydilar.* [P. Qodirov : 70].

Inson gapirar yoki nimanidir yozar ekan, albatta, uning ma'no hamda mazmuniga e'tibor qaratishi kerak. Mantiq, ma'no, mazmun ma'nolari o'rnida ham tuz so'zi ishlatilishining guvohi bo'lamiz. *Qasidangizning tuzi bo'lmasa, hech kim sizni shoir demaydi.* . [Oybek, 2004: 97]. *Tuzsiz oshning epi oson, tuzsiz gapning epi qiyin* [O'XM].

U, shuningdek, insonga berilgan rizq va umrni ham ramziy ma'noda anglatib keladi: *Haytovur, tuz-nasibasi bor ekan, omon qoldi. Mana hozir o'n ikki yoshga kirib qoldi.* [Ch.Aytmatov : 47].

Xalqimizda qiz farzand tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi. Ularni yoshligidan odobli, andishali qilib o'stirish kerak, aynan shu ma'noda, ya'ni to'g'ri, odobli ma'nolarida ham ushbu so'z ishlatiladi. *Qiz saqlasang, tuz saqla.* [O'XM, 2005, 278].

Hayotda har xil toifadagi insonlar bor. Kimdir umri davomida yaxshilik bilan, atrofida gilarni hurmatlab yashaydi, kimdir esa aksincha. Aynan shu ma'noda, ya'ni nonko'rlik qilmoq, yaxshilikka yomonlik qaytarmoq ma'nosida ham ishlatiladi ushbu leksema. *Ahmoq-da! Aqli bo'lsa tuz ichgan joyiga tuflab , sanqib yurgan bir musofirga ergashib ketarmidi.* [Ch.Aytmatov, 2005 : 27].

Biror gap yoki harakat bilan dardni, alamni yanada kuchaytirmoq ma'nosida yarasiga tuz sepmoq iborasi ishlatiladi: *Toshkand ustiga yuborg'an sipohlari bilan Normuhammad qushbegini nihoyat Toshkandni ololmay qaytish xabarini eshitib, so'ng darajada ma'yusiyat ichida o'lturgan Musulmonqul uchun bu maktub yara ustiga tuz sepish qabilidan tag'in ham alamlik bo'lib tushkan edi.* [A.Qodiriy,

2008: 66]. *Majididdin u bilan uchrashganda, uning yarasiga tuz sepmoq niyatida, odatda, benihoyat kekkayib olardi.* [Oybek, 2004: 386]. *Bu hammasi Said Xalilning yarasiga tuz sepganday bo'lyapti.* [P.Qodirov, 2008 : 15].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilimizda ramziy ma'noli so'zlar juda ko'p. Ularni tadqiq qilish orqali so'zlarning yangi va nozik ma'no qirralari ochiladi. Ulardan to'g'ri va o'rinli foydalanish nutqimizni ta'srichan qiladi va bizni takrorlardan qutqaradi, ahamiyati yanada ortishiga xizmat qiladi. Buni yuqoridagi tuz leksemali birliklar misolida ham ko'rdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдулла Қаҳҳор. Даҳшат (ҳикоялар тўплами). – Тошкент, 2008.
2. Абдулла Қодирий. ЎТКАН КУНЛАР. – Тошкент, 2007.
3. Эркин Воҳидов. ИККИНЧИ ТУМОР.
4. Одил ЁҚУБОВ. БИЛЛУР ҚАНДИЛЛАР. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975.
5. Oybek. Navoiy. – Toshkent: Sharq, 2004.
6. Пиримкул Қодиров. ҲУМОЮН ВА АКБАР (Авлодлар довони). Тошкент, 2008.
7. Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. – Toshkent: Sharq, 2007.
8. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
9. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
10. Chingiz Aytmatov. Jamila. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2005.
11. Chingiz Aytmatov. Somon yo'li.
12. Чингиз АЙТМАТОВ. ҲИКОЯЛАР.
13. ЧЎЛПОН. КЕЧА ВА КУНДУЗ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011